

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADAN SOLIQLARNI JORIY ETILISHINING HUQUQIY ASOSLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Babamuratov Jaxongir Rustamovich

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, soliqlarni undirish mexanizmi, soliq elementlari, soliq qarzdorligi, soliq imtiyozlari, elektron hujjat, jismoniy shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tishi sharoitida iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish faqat barqaror soliq tizimi mavjud bo‘lganda mumkin bo‘ladi, uning ajralmas elementi jismoniy shaxslarga soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi davlatning iqtisodiy faoliyatini faollashtirish zaruriyatini ham, soliq to‘lovchining soliq shaklida ma‘lum miqdordagi pul mablag‘larini to‘lashning real imkoniyatlarini hisobga oladigan soliq siyosatini amalga oshirishni talab qiladi. Bu o‘z navbatida turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish uchun zarur. Hozirgi kunda, jahon mamlakatlarida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar ko‘p shakllarda bo‘ladi, jumladan, savdo solig‘i, daromad solig‘i, meros va mulk solig‘i, aksiz solig‘i va boshqalar. Bundan tashqari, soliq stavkalari va qoidalari mamlakatdan mamlakatga va hatto bir mamlakatning turli qismlarida katta farq qiladi. Masalan, AQShning aksariyat shtatlar daromad solig‘ining ba‘zi shakllarini undiradilar, ammo har bir shtatning daromad solig‘i stavkasi 1% dan 13,3% gacha bo‘lishi mumkin. Bundan

tashqari, yettita shtat (Alyaska, Florida, Nevada, Janubiy Dakota, Texas, Vashington va Vayoming) umuman davlat daromad solig'ini undirmaydi va yana ikkitasi (Nyu-Xempshir va Tennessi) foizlar va dividendlar daromadlarini soliqqa tortilmaydi .

O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi" .

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqqa tortishda soliq to'lovchilar bilan munosabatlar, shu jumladan, soliq ma'muriyatchiligi rivojlantirishda soliq to'lashdan bo'yin tovlashning yangi usullariga barham berish rivojlanmagan. Bundan tashqari, soliqqa tortishning xalqaro tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda soliqni takomillashtirishni maqbul darajasini aniqlash muammosini hal etish imkonini bermayapti. Bu borada xorijiy olimlarning qarashlarini o'rganganimizda bir qator ilmiy asoslangan fikrlarni dissertatsiya ishining birinchi bobida tahlil qilganmiz. Asosan, fiziokratlar ta'limotining asoschisi Fransua Kene (1694–1774) "Davlat xarajatlarini qoplashda soliq undirish yo'nalishida yer egalariidan undiriladigan soliq va uy yoki ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarni soliqqa tortish orqali davlat xarajatlarini qoplash yo'llaridan biri sifatida e'tirof etgan.

Fransua Kene (1757 y.) bunday daromad olish usuli soliq to'lovchi uchun ortiqcha harajat va og'ir mehnatga asoslanmagan foydani tashkil qilishini ta'kidlab o'tdi" . Amerikalik siyosiy iqtisodiy soha bo'yicha olim Gerbert Saymon (1943y.) "Ijaraga berilgan ob'ektlar uchun ularning yer va ko'chmas mulk uchun soliq summasini undirish ularning haqiqiy ijara qiymatidan olinishi ko'chmas mulkka bo'lgan talabni va ijara haqi to'lovlarini pasayishiga xizmat qiladi deb ta'kidlab o'tdi" . A.P.Abramov (2019 y) "Jismoniy shaxslardan soliqlarni hisoblash va undirish usullari: manbadan ushlab qolish, deklaratsiya bo'yicha o'z-o'zini

hisoblash, kadastr usulida undirishda hisob-kitoblarni aniq belgilashdan iborat. Ularni takomillashtirish yo'nalishlari, soliq ma'muriyati jarayonini birlashtirish, soliq to'lovchini ro'yxatdan o'tkazish joyida shaxsiy daromad solig'ini olish, mulkni sotishdan olinadigan daromad solig'i ma'muriyatini takomillashtirishdan iborat" deb, o'z fikrlarini keltirib o'tgan. M.G.Delyagin (2019 y) "Jamiyatning o'zboshimchalik va talon-taroj qilganlarga bo'linib ketishini bartaraf etish, bozor munosabatlarini madaniyatli tarzda mustahkamlash uchun jismoniy shaxslardan kompensatsion soliqlarni undirishni joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Olim, davlat mulkining birinchi xaridorlari sotib olish va bozor qiymati o'rtasidagi farqni byudjetga to'lashni taklif qiladi. Bu, bir tomondan, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish orqali byudjet taqchilligini kamaytish, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshga olib kelishini ta'kidlagan, chunki iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga ko'ra, aholining turli ijtimoiy qatlamlari orasidagi daromadlar farqi aholining o'nlik guruhlarida taqsimlash(desil koeffitsienti — boy fuqarolarning 10% va kambag'allarning 10% daromadlarining nisbati) juda katta farq (16:1) nisbatida ko'rinmoqda. Bundan tashqari, bu xususiy mulkni qonuniylashtirish imkonini beradi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etmasada biroq davlat byudjetini shakllantirishda o'zining o'rniga ega. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi azaldan mavjud bo'lib iqtisodiy soha olimlari uni soliqqa tortish bo'yicha turli xil qarashlarini ifoda etib kelganlar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlarning qarashlarida aholining ijtimoiy kam daromad oladigan qatlami yetarlicha inobatga olinmagan deb hisoblaymiz va bizning fikrimizcha jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish bu - iqtisodiy nuqtai nazardan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmi sifatida soliq imtiyozlarini hisobini yuritish, qarzdorliklarni normativ-huquqiy hujjatlar asosida qisqartirish choralarini ko'rish va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishi uchun qo'shimcha zahiralarni topish hamda mahallalarda

hokim yordamchilarini keng jalb qilish orqali nafaqat mahalliy byudjetlarni to'ldirish, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar, turli ijtimoiy yo'naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo'llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021

Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-tahlil-qilish-masalalari> (data obrasheniya: 17.01.2023)

Normurzaev U. X. 2021 yildagi soliq ma'murchiligi hamda soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuzasidan //Internauka. – 2021. – T. 6. – №. 182 chast 2. – S. 99.